

**HAR XIL DOZADA GAMMA NURLANTIRILGAN KALAMUSHLAR
ME'DA OSTI BEZI GOMOGENATI TARKIBIDAGI AMILOLITIK
FAOLLIKNI O'ZGARISHI.**

Kuranova Sevaraxon Saidolimovna

Andijon davlat tibbiyot instituti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Biz har xil dozadagi gamma nurlanishni fermentlar retsirkulyatsiyasiga qanday ta'sir etishini o'rgandik.

Kalit so'zlar: amilolitik faollik, resirkulyatsiya, gamma nur, ferment, grey, doza, gomogenat, sintez.

ABSTRACT


We studied how different doses of gamma radiation affect enzyme recirculation.

Keywords: amyolytic activity, recirculation, gamma ray, enzyme, gray, dose, homogenate, synthesis.

Korotko G.F. [2005; 2011] tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, organizmda hazm bezlari sekretsialovchi fermentlar bezning va ichaklarning funksional holatiga, gistogematik to'siq o'tkazuvchanligi va chiqaruv yo'lidagi bosimi qiymati, qon sirkulyatsiyasi kabi omillarga bog'liq holatda, ingichka ichak, atsinositlar, bezning chiqaruv yo'llari orqali qonga tushadi. Bunda qon tarkibida gidrolitik fermentlar gomeostazi ta'minlanishida hazm bezlari barqaror holatdagi depo vazifasini bajaradi va qonda fermentlar fraksiyalari eritrotsitlar, qon tomir endoteliy hujayralari bilan bog'langan yoki erkin holatda bo'lishi qayd qilinadi. Erkin holatdagi fermentlar qondan hazm bezlari tomonidan rekretsialanishi mumkin, o'z navbatida resirkulyatsiya amalga oshadi.

Olingan natijalarimizga ko'ra (1A-rasm)1 grey dozada gamma nurlantirilgan kalamushlar me'da osti bezi gomogenati tarkibidagi amilolitik faollik tajribaning birinchi kunidan boshlab kamayganligi kuzatildi. Nurlantirilgan kunning ertasiga bez to'qimasi gomogenati amilolitik faolligi nazoratga nisbatan 7% ga kamayganligi aniqlandi. Tajribaning 7 kuniga qadar gomogenat tarkibidagi amilolitik faollik shu darajada kamaygan holda qoldi. Tajribaning 7, 10 va 20 kunlari ushbu ferment faolligi nazorat guruxiga nisbatan 18%, 41% va 38% ga past ekanligi aniqlandi. Tajribaning 30 va 45 kunlari ushbu ferment faolligi sekin-asta nazorat guruxi ko'rsatkichiga yaqinlashayotganligi kuzatildi, ya'ni ushbu ko'rsatkich sekin-asta dastlabki holat

darajasiga tiklana borayotganligi aniqlandi, nazoratga nisbatan 21% va 16% kam ekanligi kuzatildi. Tajribaning 60 kuni bez gomogenatidagi amilolitik faollik nazorat guruxi darajasiga yetdi.




1-rasm. Me'da osti bezi amilolitik aktivligiga (birl/g), 1 Grey (A) va 2 Grey (B) dozadagi gamma nurlanishning ta'siri (M±m) **P<0,05; *P<0,001; n=6**

Demak, ushbu tajribalarimiz natijalariga ko'ra, gamma nurlanish 1 grey dozada ham me'da osti bezida amilaza fermenti sintezini susaytirar ekan va bu ta'sir 45 kungacha davom etishi va 60 kundan boshlab bezdagi ferment sintezi dastlabki holatga qaytar ekan, degan xulosa kelishimiz mumkin.

Tajribamizdagi yuqoriroq dozadagi nurlantirish, kalamushlar bezidagi amilolitik faollikka biroz o'zgacha ta'sir qildi. 2 va 4 grey dozadagi nurlantirilgan kalamushlar me'da osti bezi gomogenatidagi amilolitik faollik tajribaning ertasiga o'zgarishsiz qoldi, tajribaning 3 kundan boshlab u kamaydi (1B-rasm).

Tajribaning 7 kunida me'da osti bezi gomogenatidagi amilolitik faollik eng ko'p kamaydi, bu ko'rsatkich nazoratga nisbatan 32% kamaydi. Tajribaning keyingi kunlarida bez to'qimasi tarkibidagi amilolitik faollik to'liqsimon o'zgarishga uchradi, tajribaning 10 va 20 kunlarida nazoratga nisbatan 24% va 12% ni tashkil qilgan bo'lsa, 30 kunda 20% va tajribaning 45, 60 kunlarida 14% va 12% ga kam ekanligi aniqlandi. 4 grey dozada nurlantirilgan kalamushlarda ham me'da osti bezi gomogenatdagi amilolitik faollik huddi 2 grey dozada ta'sirlangan tajriba hayvonlaridagi kabi o'zgarishlar kuzatildi, tajribaning 7 kunida ushbu faollik nazoratga nisbatan 38% kamayganligi va boshqa kunlarda to'liqsimon o'zgarishlar sodir bo'lib, nurlantirilganda 60 kun o'tganda ham amilolitik faollik bez to'qimasi gomogenatida dastlabki holatiga qaytmadi, ya'ni ushbu ferment sintezi to'la tiklanmadi (2A-rasm).



2-rasm. Me'da osti bezi amilolitik aktivligiga (birl/g), 4 Grey (A) va 6 Grey (B) dozadagi gamma nurlanishning ta'siri (M±m) **P<0,001; n=6

6 grey dozada nurlantirilgan kalamushlar me'da osti bezidagi amilaza fermenti sintezi tajribaning birinchi kunidanoq keskin kamaydi, nazorat guruhiga nisbatan ushbu ferment faolligi 27% ga kamaydi. Bez to'qimasidagi amilolitik faollik ushbu dozada nurlantirilgandan so'ng kundan-kunga pasayib tajribaning 30 kunida nazoratga nisbatan 70% past ko'rsatkichga ega bo'lganligi kuzatildi (2B-rasm).

Demak, nurlantirish dozasi ortgan sari, amilaza fermentining me'da osti bezidagi sintezi buzilishi keskinroq tus olar ekan, 6 grey dozadagi ta'siri ushbu ferment sintezini o'ta kuchli buzib yuborar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Коротько Г.Ф. Секреция поджелудочной железы // 2-е изд., доп. – Краснодар: Изд-во КГМУ, 2005. – 312 с.
2. Коротько Г.Ф. Рециркуляция ферментов пищеварительных желез // Краснодар: ЭДВИ, 2011. – 144 с.